

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARDA TANQIDIY VA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODLARI TAHLILI

Rashidova Oynisa Xusniddin qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti

Email: aoynisaa@gmail.com


Annotatsiya. Bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri talabalarni ijodkor, erkin fikrlovchi, o'quv va ish faoliyatidagi barcha muammolarni o'zi yecha oladigan, o'z o'quvchilarini o'qitish uchun yetarlicha tajriba, bilim, malakaga ega bo'lgan shaxs qilib tarbiyalashdir. Shu sababli, ularda bu ko'nikmalarni shakllantirish uchun avvalo ularning tanqidiy va kreativ fikrlashini shakllantirish zarurdir. Ushbu maqolada, kreativ va tanqidiy fikrlashning bugungi kundagi zarurati o'rganiladi. Shu bilan birgalikda, ularni rivojlantiruvchi metodlar aniqlanadi. Undan tashqari, ularni rivojlantiruvchi metodlar haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, ularni rivojlantiruvchi metodlar, klaster metodi, F.S.M.U metodi, BBB metodi, yozma bahslar metodi.

Kirish

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning o'quv jarayoniga nisbatan qiziqishlarini orttirish, ularning mustaqilligi va faolligini ta'minlash, tanqidiy va kreativ tafakkurini shakllantirishga qaratilgan o'quv-biluv jarayonini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Chunki, uni rivojlantirish bugungi kunning zamon talabi, hamda aynan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari – ertangi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim beruvchi shaxsdir. Ko'plab professorlar, olimlar aniqlashicha, 10 yoshgacha bola bilimlarni egallashi mumkin bo'lgan 60% ini o'zlashtiradi. Shu sababli ham boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbi boshqa o'qituvchilarnikiga qaraganda mas'uliyatliroq va ko'proq pedagogik, psixologik bilim talab qiladigan kasbdir. Ushbu nutq mohiyatidan kelib chiqib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilimli, tajribali, bolalarni sevuvchi, mehribon, ijodkor, mas'uliyatli bo'lishi kerakligi anglandi. Shu sababli, ularning tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantirish, yetarlicha metodlarni bilishi va ularni amaliyotda faol qo'llay olish o'rgatilishi zarurdir.

Quyidagi rasmdagi metodlarning maqsadi - bo'lajak talabalarning tanqidiy va kreativ fikrlashini shakllantirish va rivojlantirish hisoblanadi.



1-rasm. O'quvchilarda tanqidiy va kreativ fikrlashni shakllantirishning zamonaviy metodlari

Klaster metodi - pedagogik, didaktik maqsadlarning muayyan shakli bo'lib, ushbu metod talabalarga har qanday muammo va mavzular yuzasidan erkin, ochiq, farazli o'ylash va fikrlarni aniq, teran bayon etishga sharoit yaratadi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Klaster metodi aniq obektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning talabalar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'quv jarayonida klaster metodlaridan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan klaster metodi talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri yechimini topishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Klaster metodi orqali talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari, ijodkorligini va faolligi nazariy va amaliy muammolarga bo'lgan qarashlari rivojlanadi.

«Klaster» metodini o'tkazish texnologiyasini amalga oshirishda - talaba nimani o'ylagan bo'lsa, shuni qog'ozga yozadi. U o'z fikrlarining sifati to'g'risida o'ylab o'tirmay, ularni shunchaki yozib boradi. Yozuvining orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e'tibor berilmaydi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha, yozishdan to'xtamaydi. Agar talaba ma'lum muddat biror-bir g'oyani o'ylay olmasa, u holda qog'ozga biror narsaning rasmini chiza boshlaydi. Bu harakatni yangi g'oya tug'ilgunicha davom ettiradi. Ma'lum bir tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarni ilgari surish hamda ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikni ko'rsatishga harakat qiladi. G'oyalar yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqalarini ko'rsatish cheklanmaydi.

«Klaster» metodi puxta o'ylangan strategiya bo'lib undan ta'lim oluvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida amalga oshiriladi.

Klaster inglizcha so'z bo'lib (kluster) - bir butun holatda ma'lum mavzu bo'yicha erkin va ochiq fikrlashning notekis shaklini namoyon etadi.

Klaster metodini amalga oshirishda yangi mavzuning asosiy tushunchasi aylanma shaklidagi chizma ichida yoziladi. Masalan: yangi mavzu pedagogik qobiliyatlar bo'lsa talabalar u haqida ko'z oldiga kelgan fikrlarni yozish taklif etiladi. Bunda talabalar tomonidan yozilgan fikrlar umumlashtirib aytib beriladi. Bu fikrlarni doskada bo'r yoki plakatda flomasterlar bilan yozish mumkin.

Yangi mavzu o'rganishda darsni mustahkamlash bosqichida talabalarga quyidagi topshiriq beriladi. Qizil rangli ruchkalarini (yashil, qora bo'lsa ham bo'ladi) olib yangi o'rganilgan tushunchalar bilan boyitiladi.

Talabalar yozilganlarni o'qib aytib beradilar. Doskada boshqa rangli bo'r bilan yoki plakatda boshqa rangli flomasterlar bilan aytilgan fikrlari yozib boriladi [1].

«Bilaman. Bilib oldim. Bilishni xohlayman», qisqagina BBB — interaktiv uslub bo'lib, yangi bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish, talaba ijodkorligini oshirish uchun ta'limda qo'llaniladi.

Talabalar beshta guruhga bo'linadi va guruhlar nomlanadi. Yozuv taxtasi uch qismga ajratiladi. Birinchi bandning yuqori qismiga «Bilaman», ikkinchi bandning yuqori qismiga «Bilib oldim», uchinchi bandning yuqori qismiga esa «Bilishni xohlayman» degan so'zlar yoziladi. So'ngra professor o'qituvchi talabalardan mavzu yuzasidan qanday ma'lumotlarga ega ekanliklarini so'raydi va bildirilgan fikrlarni «Bilaman» nomli bandga yozib qo'yadi. Ushbu harakat guruhlar tomonidan fikrlar to'la bayon etilgunga qadar davom etadi. Mazkur jarayonda guruhlarning barcha a'zolari faol ishtirok etishlariga ahamiyat berish zarur.

Talabalar tomonidan bildirilayotgan noto'g'ri fikrlar ham inkor etilmasligi zarur (zero bunday harakat talabalarning faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi).

Keyingi bosqichda talabalarga mavzuga oid matnlar tarqatiladi. Ushbu matn mavzu bo'yicha eng asosiy tushunchalarni o'z ichiga oladi. Talabalar matn bilan tanishib chiqqandan so'ng fikr yuritishlari hamda mavzuga oid yana qanday ma'lumotlar o'zlashtiriganliklarini aniqlashlari lozim. Talabalar o'z xulosalari asosida fikrlarini bayon etadilar, ushbu fikrlar «Bilib oldim» nomli ustunga yozib boriladi.

So'ngi bosqichda professor o'qituvchi talabalaridan yangi mavzu bo'yicha qanday ma'lumotlarni o'zlashtirish istagida ekanliklarini so'raydi va talabalarni yana o'ylashga da'vat etadi. Guruhlardan navbati bilan fikr so'raladi. Talabalar tomonidan bildirilgan fikrlar «Bilishni xohlayman» nomli ustunga yozib boriladi.

F.S.M.U.(Fikr, Sabab, Misol, Umumlashtirish) metodining tavsifi: Bu metod mashg'ulotda o'rganilayotgan mavzuning muhokamasi jarayonida unga doir masalalar bo'yicha o'quvchilar o'z fikrlarini bayon qilishlari, shu fikrlarni asoslovchi sabablarni ko'rsatishlari, ularni tasdiqlovchi misollarni keltirishlari va pirovardida umumlashtiruvchi xulosalar chiqarishlarini o'rgatish va mashq qildirish metodidir.

Bu metod o'quvchilarni erkin fikrlashga, o'z fikrini himoya qilishga va boshqalarga o'z fikrini o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, bahs-munozara madaniyatiga, shu bilan bir qatorda, o'quvchilar tomonidan o'quv jarayonida egallangan bilimlarni tahlil etishga va o'zlashtirish darajasini aniqlashga, baholashga o'rgatadi.

FSMU metodining umumiy sxemasi:

F – fikringizni bayon eting;

S – fikringizni asoslovchi sabab ko'rsating;

M – ko'rsatgan sababingizni tasdiqlovchi misol keltiring;

U – fikringizni umumlashtiring.

FSMU metodini amalda qo'llash namunasi:

O'qituvchi quyidagiga o'xshagan vazifalar yozilgan tarqatma materiallarni oldindan tayyorlab, mashg'ulot vaqtida kichik guruhlariga yoki alohida talabalarga tarqatadi.

1-vazifa. "Ta'lim texnologiyasi o'zini oqlaydi" mavzusi yuzasidan fikrlaringizni FSMU metodi bo'yicha bayon eting.

F- _____

S- _____

M- _____

U- _____

2-vazifa. "Shaxs shakllanishida faoliyatning o'ri" mavzusi yuzasidan fikrlaringizni FSMU metodi bo'yicha bayon eting.

F- _____

S- _____

M- _____

U- _____

O'qituvchi vazifani bajarish uchun vaqtni belgilab e'lon qiladi. Vazifalarni bajarish vaqtida umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Talabalar o'zlariga berilgan vazifani bajarib bo'lgandan so'ng, ularning umumiy muhokamasini tashkil qiladi. Vazifani eng yaxshi bajarganlar rag'batlantiriladi [2].

Yozma bahslar metodi talabalarga o'quv xonasidagi tengdoshlari bilan birgalikda shu onda jamoatchilik fikrini to'liqlantirayotgan mavzularda muloqotlarni rejalashtirish imkonini beradi. Uslub talabalarning berilgan mavzu sohasidagi bilimlarini chuqurlashtirish sharoitini yaratish, munozara madaniyatini o'rgatish va o'z fikrini asoslash qobiliyatini rivojlatirishga xizmat qiladi.

Bu metoddan foydalanishda o'qituvchi talabalarni baholash uchun asos xizmatini o'tovchi ajoyib materialga ega bo'ladi. Yozma bahslar uslubiyoti bunday muloqotlarni o'quv xonasidagi barcha o'quvchilar ishtirokida yozma shaklda o'tkazish imkonini beradi. Mashg'ulot o'tkazish tartibi:

1. Talabalar bahs mavzusi bilan oldin o'tkazilgan mashg'ulotda tanishadilar. Bahs arafasida o'qituvchi bo'lajak mavzu to'g'risida talabalarga axborot berar ekan, bahslar qay yo'sinda o'tishini qisqacha tushuntiradi (bu, albatta, bahslar birinchi marta o'tkazilayotgan bo'lsa, juda ham muhimdir).

2. O'qituvchi guruh talabalarini ikkiga ajratadi va ularni o'quv xonasining ikki tomoniga qator qo'yilgan stollar atrofiga yuzma-yuz holatda o'tkazadi va har bir guruh qatnashchilari qaysi nuqtayi nazarni himoya qilishlarini belgilaydi (masalan, 1 -guruh – ijobiy holat joriy qilinishi tarafdorlari, 2-guruh – bunga qarshilar).

3. Shundan so'ng o'qituvchi talabalarni juftliklarga ajratadi, har bir juftlikda qarama-qarshi qarashlar tarafdorlari bo'lishi kerak. Juftliklarni tartib raqami yoki alifbo harflari bilan belgilanadi. Agar o'quv xonasida talabalar soni toq bo'lsa, o'qituvchi munozaraga yetishmagan sherik huquqida qatnashishi mumkin. O'qituvchi 1-guruh talabalariga (keltirilgan misolda – ijobiy holat joriy qilinishi tarafdorlari) har bir juftning raqami (harfi yoki ramzi) bilan belgilangan katak qog'oz varaqlarini tarqatadi.

4. Talabalar o'quv xonasining ikki tomonida o'tirib, juftma- juft yozma muloqotni boshlaydilar. 1-guruh talabalariga o'zlari maqullayotgan nuqtai nazar foydasiga bitta ochiq dalilni shakllantirish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. Ular bu dalilni qog'oz varag'iga puxta tahrir qilingan paragraf shaklida yozadilar. Bu vaqtda 2-guruh talabalariga o'zlari bahs jarayonida bayon etishlari mumkin bo'lgan nuqtayi nazarlarini isbotlashlari mumkin.

5. Yozilgan varaqlar qarshi guruhdagi sheriklarga (ijobiy holatning joriy qilinishiga qarshi chiquvchilarga) beriladi. Ularga juftlik bo'yicha sheriklarining dalillariga qarshi javob topish va yozish uchun hamda o'z qarshi dalillarini bayon qilishlari uchun 8 daqiqa vaqt ajratiladi.

6. Dalillar almashishning bunday tartibi 2-3 marta takrorlanadi bunda har bir talaba sherigining dalil-isbotiga javob qaytarishi va o'zining aks dalilini keltirishi shart. Talabalarining bilimlarini aniqlash uchun 3-4 raund etarlidir. Ohirgi raunda talabalarga yakuniy paragrafni yozish imkoni beriladi. Shundan so'ng yozma ish yig'ib olinadi.

7. Bahslarni samarali yakunlashning eng qulay shakli – ikkala tomonga qaratilgan savoldir: "Qarshi tomonning eng yaxshi dalil- isbotlari qaysilar bo'ldi?" Har ikkala tomon vakillari qarshi taraf yozgan fikrlarni o'qib yuqoridagi savolga javob beradilar.

8. O'qituvchi ishni yakkama-yakka yoki juftlik bo'yicha baholashi mumkin. Agar o'qituvchi yozma ishni baholashni rejalashtirgan bo'lsa, bu haqda talabalarni darsning boshidayoq ogohlantirishi kerak.

Xulosa

Dars samaradorligini oshirishda innovatsion usullardan, zamonaviy metodlardan foydalanish o'qituvchilar mahoratini oshirish avvalo ularning maxsus kasbiy salohiyatiga, tajribasiga bogliq. Tepada keltirilgan metodlar mahorati shunday universal komponentlarni o'z ichiga qamrab oladiki, ushbu komponentlardan turli o'quv fanlari pedagoglari foydalana oladilar va bu yo'nalishda ular tez vaqtda yaxshi natijaga erishishlari mumkin. Shuningdek, ushbu metodlar orqali professor o'qituvchi mavzudan ko'zlangan maqsadni amalga oshirishda qiynalmaydi va darsda erishilgan yutuqlar an'anaviy darslarga qaraganda ancha ko'proq bo'ladi. Shu bilan birgalikda, talabalarining darsga bo'lgan qiziqishi ortadi, bor diqqat e'tiborini darsga qaratadi, darsda faol ishtirok etadi va natijada talaba mavzu yuzasidan yetarlicha bilimga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muxriddin Yuldosh o'g'li Rejabov (2022), " "Klaster"- erkin fikrlashning asosiy metodi " , " Scientific progress" journal, 2022.

2. R.Tuxtasheva (2022) tuzuvchi, “ O’quvchilarda tanqidiy va kreativ fikrlashni shakllantirish asoslari” nomli o’quv uslubiy majmua, Samarqand-2022.
3. Begmatova D.M., Rashidova O.X. (2024) “Organizing the independent education of students in higher education institutions on the basis of a creative approach”, « Journal of new century innovations" international interdisciplinary research journal , volume , issue , 2024, 25-31, DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10618051>
4. D.K Qarshiyeva, O.N Usmonova. (2023) “O’quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda xalqaro tadqiqotlarning o’rni”, Молодой учёный №2 (449) январь 2023 г, 500-505.
5. N.I.Saydullayeva. (2022) “Bo‘lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari”. -T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2022. 132 bet.
6. Rashidova O. (2023) “The use of innovative methods and tools in the organization of independent education in higher educational institutions as a pedagogical problem” Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social science, volume 3, issue 10, 2023, 261-270
7. Qo‘chqarova M. (2023) “ Boshlang'ich sinf o‘quvchilariga tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini singdirib borish - davr talabidir” tezisi, “Boshlang'ich sinf o‘quvchilarida universal ta’lim faoliyatlarini shakllanitirish, rivojlantirish va takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti” mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami, 2023-yil, 31-mart
8. Qodirov D. (2022) “ Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tanqidiy fikrlashga o'rgatishga maxsus tayyorlash zaruriyati”, UDK: 373:371 doi: 10.34920/so/vol_2022_issue_8_7